

INTERNET TILIDA MULTIMODAL ALOQA VOSITALARINING O'RNII

Bo'riyeva Lobar Abdullayevna,

QarDU o'qituvchisi

lobarburiyeva84@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18380582>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asrda keng tarqalayotgan internet tilining o'ziga xos xususiyatlari va til xususiyatlari ochib berilgan. Internet tili og'zaki va yozma nutqdan iborat bo'la olishi va turli lingvistik va ekstralingvistik vositalardan foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Internet yozishmalarida multimodal vositalardan foydalanish haqida mulohazalar olib borilgan.

Tayanch so'zlar: internet tili, antroposentrik paradigma, nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutqiy faoliyat, mim, multimodal aloqa, kommunikatsiya.

Аннотация. В статье раскрываются специфические особенности интернет-языка, получившего широкое распространение в XXI веке. Рассматривается возможность функционирования интернет-языка как устной и письменной формы речи, а также использование в нем различных лингвистических и экстралингвистических средств. Особое внимание уделяется применению мультимодальных средств в интернет-переписке.

Ключевые слова: интернет-язык, антропоцентрическая парадигма, речь, устная речь, письменная речь, речевая деятельность, мем, мультимодальная коммуникация, коммуникация.

Abstract. This article reveals the specific features of Internet language that have become widespread in the twenty-first century. It discusses the ability of Internet language to function as both oral and written discourse, as well as the use of various linguistic and extralinguistic means. Particular attention is paid to the use of multimodal tools in online communication.

Keywords: Internet language, anthropocentric paradigm, speech, oral speech, written speech, speech activity, meme, multimodal communication, communication.

Kirish. Raqamli asr muloqot uslubining jahon miqyosida jadal ravishda o'zgarishi yozma va og'zaki nutq chegaralarini tobora yaqinlashtirib, kommunikatsiyaning yangi, tezkor va multimodal shakllarini yaratdi. Ushbu jarayon, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshayotgan matnli va audio-vizual muloqotlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Natijada zamonaviy tilshunoslik fanining boshqa yangi ijtimoiy fanlar sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvistik ekspertiza, lingvokulturologiya va kompyuter lingvistikasi bilan integratsiyasi kuchaydi. Bugungi kungakelib, ijtimoiy tarmoqlardagi turli yosh guruhlari vakillarining nutqiy xususiyatlarini aniqlash, anonim matnlarning mualliflarini profillash va bu asosda ularning demografik belgilari haqida xulosa chiqarish masalasi lingvistik ekspertizada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari nutqining lingvistik xususiyatlarini o'rganishda faqat fiziologik va biologik farqlar emas, balki ta'lim sifatining darajasi, madaniy omillar, ijtimoiy muhit va kommunikatsiya vositalarining ta'siri kabi ijtimoiy omillarning ham o'zni beqiyos. Ushbu omillar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining nutqida qanday o'zgarishlarni keltirib chiqarishi va bu o'zgarishlarning lingvistik ekspertizada anonim matn mualliflarining yoshini aniqlashdagi

ahamiyati zamonaviy tilshunoslikning dolzarb va ilmiy jihatdan chuqur o'rganilishi talab etilayotgan muammolaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida muloqot jarayonida paralingvistik vositalardan foydalanish, ularning turlari, strukturasi va tiplari, tarkibiy qismlari va ular orasidagi munosabatlar, noverbal birliklarning semantik, nutqiy, stilistik, kommunikativ, pragmatik xususiyatlari o'rganilgan. Jumladan, jahon tilshunosligida muloqot jarayonining o'ziga xos xususiyatlari haqida M.Baissvenger, K.Lukxardt, S.Ortmann, N.G.Asmus, T.N.Zaxarova, K.V.Ovcharova, E.M.Chuxarev kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi.

Yiqiong Zhang, Tao Song, Shengyou He, Jingsong Qi ijtimoiy tarmoqlardagi noverbal birliklarning xususiyatlari, chastotasi va toifasini aniqlashga e'tibor qaratgan bo'lsalar, Mayank Kejriwal, Qile Wang, Hongyu Li, Lu Wang kabi olimlar Muloqotning paralingvistik tarkibiy qismlari va ularning kompensatorlari vazifasini bajaradigan til vositalarini, ijtimoiy semiotik belgilarni aniqlash va tavsiflashga qiziqdilar. Isabelle Boutet, Megan LeBlanc, Justin A. Chamberland, Charles A. Kollinlar esa ijtimoiy atributlarga va axborotni qayta ishlashda hissiy muloqotni aks ettiruvchi emojilarni tadqiq etishdi.

Rus tilshunosligida paralingvistik vositalar, noverbal birliklar va ularning turlari, vazifalari xususida B.I.Dodonov, Y.D.Apresyan, V.I.Shaxovskiy, Y.D.Pershina, N.I.Polidovets, G.V.Kolshanskiy, I.Vashunina, M.A.Belova, Chju Yunpin, M.A.Vasileva tomonidan tadqiq qilingan.

Turkiy tilshunoslikda paralingvistik vositalar masalalari Z.A.Sultanova, E.Atnabayev, Y.V.Babayeva, M.V.Zaynullin, L.A. Kalimullina, M.Gekxan tadqiqotlarida yoritilgan. O'zbek tilshunosligida muloqot jarayonida qo'llaniladigan paralingvistik vositalar, noverbal birliklar A.N.Nurmonov, D.B.Nabiyeva, D.B.Turgunov, A.Raxmonova, N.B.Muratova, A.Aripovalar tomonidan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlarda axborot almashinuvi jarayonida o'zaro ta'sirni, kayfiyatni, suhbatga bo'lgan munosabatni, hissiyotlarni ifodalovchi simvollar va boshqa belgilarning semantik xususiyatlari va vazifalari aniqlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada, asosan, jahon tilshunosligidagi nazariy fikrlar, o'zbek tilshunosligi yutuqlari, shuningdek, tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, semantik, struktural, substansial, statistik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Bu zamonaviy o'zbek tili leksikografiyasining ichki strukturasi universal va milliy jihatlarni aniqlashga xizmat qilishi mumkinligi aniqlandi.

Natijalar va muhokama. Hozirgi XXI asr axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda internetdan foydalanish va ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish jadal rivojlanib bormoqda. Internet orqali kommunikatsiyaga kirishayotgan adresant va adresat o'zaro verbal va noverbal aloqa vositalaridan foydalanadi.

Internetdagi muloqotning asosiy xususiyatlari orasida tadqiqotchilar anonimlik, aloqalarning ixtiyoriyligi va maqsadga muvofiqligi, aloqaning hissiy tarkibiy qismining qiyinligi, atipik, g'ayritabiiy xatti-harakatlarga intilish, stereotiplar va identifikatsiya mexanizmlarining kuchli ta'sirini qayd etadilar [14].

Internetdagi muloqotning asosiy uslubi belgilanmagan. Chunki internetda har xil uslubdan foydalaniladi. Masalan, talabalar yoki ilmiy doiradagi olimlar ilmiy uslub asosida bir-biri bilan muloqot qilishadi. Do'stlar o'zaro muloqot jarayonida so'zlashuv uslubida gaplashadi.

Chat yozishmalarida og'zaki va yozma nutq elementlari aralash holatda bo'ladi. Anonim yozishmalarda yuqoridagi belgilarga qo'shimchalar qo'shilishi ham mumkin, ammo chat yozishmalari identifikatsion ahamiyat kasb etganda mazmun va talablar rasmiy tus oladi. Chatda muloqotning tezligi turli fikrlarning aralashuviga sabab bo'lib izchilik yo'qoladi. Chat yozishmalari ma'lum maqsad va mavzuga qaratilgan bo'lsa foydalanuvchilar o'z uslubini, muloqot shaklini, chat an'anasini yaratishadi. Virtual olam esa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining real vaqtda yozishmalar yoki multimodal muloqot shakllari orqali kommunikatsiya jarayoniga kirirshishidir. Veb-sahifalar – katta hajmdagi foydalanuvchilarga moslashgan asosan rasmiy ba'zan norasmiy xarakterga ega bo'lgan kontent hisoblanadi. Forumlar – rasmiy uslubga ega bo'lgan, ma'lum bir mavzu doirasida maqsadli yig'ilgan foydalanuvchilar tomonidan uzoq vaqt davomida muhokamalar olib boriladigan, asinxron muloqotga asoslangan nutq shakli. Bulardan tashqari bloglar, postlar, glavniylar, hikoyalar ham internet tilshunosligining shakllari safidan joy oladi.

Demak, internet lingvistikasi keng qamrovli tushuncha. Uni rasmiy va norasmiy virtual makonga ajratish maqsadga muvofiq. Rasmiy va norasmiy virtual olam umumiy lingvistik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinishi, olingan ma'lumotlar asosida har bir tarmoqning lingvistik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Norasmiy virtual olam esa asosan ijtimoiy tarmoqlarni nazarda tutib, bunda lingvistik ekspertiza va lingvistika obykti bo'lishi mumkin. Matnning mazmuni, semantik mundarijasidan kelib chiqqan holda tarmoq matniga xos lingvistik xususiyatlar tahlil qilinishi, hamda matn muallifiga xos identifikatsion belgilarni aniqlash mumkin. Asosiy norasmiy ijtimoiy tarmoqlar matnining xususiyatlari o'rganilganda quyidagi jihatlar xarakterli ekanligi aniqlandi. Yozma shakldagi muloqotga xos xususiyatlar quyidagilarda ko'rinadi:

So'zlar qisqartirilishi, tovushlar qavatlanishi:

LOL (Laughing out loud-qattiq kulmoq), OMG (Oh my good-ey xudo), kooop, iyaaa;

tinish belgilaridan deyarli foydalanilmaslik: *ana wu maydagapligichunam yoqmaydi, odam sal ozini biliv kere;*

tinish belgilarining ortiqcha ishlatilishi: *Nmaaa!?!;*




emojilardan foydalanish;

noadabiy qatlam soʻzlarining faolligi: *vapshe, srazu, vechna, kaksegda*;
 bosh harflar imlosiga amal qilinmaslik: *kecha komolli korudm hc narsa dmadiyu*;
 katta-kichik harflardan stilistik maqsadda foydalanish (til birliklarining barchasi
 bosh harflarda yozilsa asabiylashish, kayfiyatning oʻzgarishi, ovoz tonining koʻtarilishi,
 baqirganlik yoki oʻta xursandlik maʼnosini anglatib, emotsionallikni taʼminlaydi: *OZIM
 BILAMAN! XOLA BOʻLDIMMM*;

imloviy savodxonlikka amal qilinmaslik: *odamlani man haqmdagi gaplari qizumas*;
 qisqa jumalardan foydalanish: *nma bopti, blmadim*
 norasmiy salomlashish va xayrlashish: *helo, privet, qalesla, bonjur, privetik vsem*;
 hissiyotni ifodalashda belgilardan foydalanish;
 suhbat ohangining tezkorligi;
 undov soʻzlardan foydalanish (masalan, *hmm, ooo, vay*);
 slenglardan foydalanish: *OMG (oh my God), bomb(a) (ajoyib zoʻr maʼnosida), layk
 bos, atmetka qil, feyk akkaunt, troll (qasddan birovni masxaralovchi, haqorat qiluvchi
 akkount), teg qilmoq*;

kodlarning aralashuvi: *vashhe chunmiman, mani atmetka qip qoʻy, share qivorci,
 selfiga tush*;

multimodal muloqot shakli – kommunikantlarning bir vaqtda turli muloqot
 shakllaridan foydalanishi. Masalan: rasm+musiqa+gif tarzida. Bu zamonaviy
 kommunikatsiyaning asosi boʻlib, ijtimoiy tarmoqlarda maʼno bir necha ifoda vositasi
 orqali shakllanadi. U muloqotni koʻpkanalli, jonli, emotsional va kontekstga mos qiladi

[15]. Instagram post: “Yoz tugadi  lekin xotiralar abadiy”   #summer2025”;
 vaqt va masofa tanlamasligi.

Internet tarmoqlarida til ogʻzaki va yozma koʻrinishda turli shakllarda namoyon
 boʻladi:

sms xabar (twit, kommentariy, blog va boshqalar);
 videoxabar;
 audioxabar;
 e-mail;
 glavniy rasm va videolari.

Shulardan keng tarqalib asosiy daromad manbayiga ham aylanib ulgurgan internet
 tarmogʻi bu bloglar hisoblanadi. “Bloglar yozma til evolyutsiyasida yangi bosqichning
 boshlanishi” [8]. Inter tili maʼlum uslubni ifodalamasdan uslublar chegarasida turadi
 internet muloqot shakli, mazmuni, maqsad vazifalari kabi belgilaridan kelib chiqib
 uslublar almashinuvi kuzatilib turadi.

Internet asrida mobil qurilmalarning mashhurligi keyinchalik muhokama qilinadigan
 sabablarga koʻra gapirishdan koʻra yozishni ragʻbatlantiradi. Bu shuni anglatadiki, yozish
 yuzma-yuz (face to face) funksiyalarining koʻpini oʻz zimmasiga olgan aloqadir. Raqamli

yoʻzishda ikkita vaqtinchalik vaqt mezonini mavjud: sinxron va asinxron. Asinxron raqamli aloqa, qabul qiluvchining unga xabar yuborilganligini bilish shart boʻlmaganda paydo boʻladi - bu elektron pochta xabarlarini, eʼlonlar taxtasi, bloglar, va suhbat xonalari. Qabul qiluvchi xabarga kechiktirilgan rejimda kiradi va keyin unga javob beradi. Sinxron raqamli aloqa qabul qiluvchi aloqani kechiktirilgan vaqtdan koʻra realda davom etayotgan aloqa sifatida bilganida yuzaga keladi. Yuzma-yuz suhbatlar sinxron boʻlib, ogʻzaki muloqotga taʼsir qiladi. Oʻflayn asinxron aloqa asosan yozma bosma vositalarda (xatlar, kitoblar va boshqalar) sodir boʻladi, ular yozuv janriga qarab oʻzlarining joyidan chiqarilgan (kechiktirilgan) oʻqish namunalarini oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamli aloqalarda, qabul qilishda koʻplab suhbatdoshlar ishtirok etishi mumkin, masalan, elektron pochta xabarlarini bir vaqtning oʻzida koʻplab odamlarga yuborilganda yoki u toʻgʻridan-toʻgʻri faqat bir kishiga qaratilgan boʻlishi mumkin.

Anʼanaviy nutqning qabul qiluvchisi va tinglovchi aniq boʻladi virtual muloqot shakliga xos boʻlgan nutqning qabul qiluvchisi aniq boʻlishi bilan birgalikda umumiy yoki noaniq boʻladi. Virtual muloqotning har ikkala koʻrinishi anʼanaviy muloqotdan oʻz uslubiga ega ekanligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy tarmoq muloqoti bir paytda ogʻzaki va yozma nutq xususiyatlarini oʻzida jamlaydi. Virtual muloqotga xos boʻlgan nutqni tahrirlash, koʻchirib olish, arxivlash va oʻchirib yuborish mumkin. Virtual muloqot tili anʼanaviy muloqot tilidan deyarli farq qilmaydi.

Xulosa. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ham jurnalistlarga, aholiga, siyosatshunoslarga, din arboblari tegishli maʼlum bir talablar asosida yaratilgan nutq koʻrinishlari mavjud. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tilini nutqning har ikkala koʻrinishini oʻzida aks ettirgan yangi til sifatida baholash mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlar tilini alohida til yoki mavjud tillarning qayta ishlangan shakli ekanligini aniqlash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Аликулов Т., Равшанов М. Луғатларда омонимларнинг берилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1990. – №2. – Б. 51-54.
2. Барт. Р. Лингвистика текста \ Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1978. С. 444-445.
3. Апресян Ю.Д., Апресян В. Ю. Метафора в семантическом представлении эмоции // Апресян Ю.Д. Избр. тр. : в 2 т. М. : Языки рус. культуры, 1995. Т.
4. Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида вариантдорлик (Газета тилидаги айрим лексик дублетлар асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. – №6. –Б. 57-61.
5. Володина М.Н. Национальное и интернациональное в процессе терминологической номинации : — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1993. — 111 с.
6. Володина М.Н. Теория терминологической номинации. - М.: Изд. Московского Универ., 1997. – 180С.
7. Гак. В.Г. Сопоставительное изучение языков и лингвостилистическая типология / Русский язык за рубежом, 1974. №3. —С.52 – 58.
8. Crystal D. The Scope of Internet Linguistics. Paper presented at the American Association for the Advancement of Science meeting. – Cambridge, 2004. – P. 56.
9. Филин Ф. П. Очерки по теории языкознания. – М., 1982, – С.230.

10. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.196
11. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўқув юрти талабалари учун қўлланма.— Т.: Ўқитувчи, 1995.— 128 б.
12. M.Yoldoshev Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent.2008.
13. Хожиев А., Муллаев Т. Лексик антонимия ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. – №1. – Б. 12-17.
14. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.196
15. Виноградова Т.Ю. Специфика общения в Интернете. / Т.Ю. Виноградова // Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С. 63-67.
16. Kress G., & van Leeuwen T. (2001). Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. London: Arnold Publishers. Jewitt, C. (2014). The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. 2nd ed. London: Routledge. Adami E. (2017). Multimodality. In: O'Halloran K.L. & Smith B.A. (Eds.), Multimodal Studies: Exploring Issues and Domains. London: Routledge. Manca, E. (2019). Persuasion in Multimodal Discourse: Rhetorical Choices across Modalities. Cambridge: Cambridge Scholars Publishing. Redfame Media. (2022). Semiotic Multimodality Communication in The Age of New Media. Studies in Media and Communication, 10(1). – P. 45–56.

